

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: globallashuv, investitsiya, loyihalar, texnologiyalar, strategiya, infratuzilma, xususiy kapital.

Annotatsiya

mazkur maqolada globallashuv sharoitida investitsion faollikni oshirishdagi muammolar o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari aynan globallashuv sharoitida investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha kerakli xulosa va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Bugungi kunda respublikamizga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun asos sifatida investitsion faollikni yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya faoliyatini samarali tartibga solish borasida mamlakatda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, hududlarning hamda iqtisodiyot tarmoqlarining xomashyo, infratuzilma va mehnat salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarining mavjud emasligi xorijiy kapitalni faol jalb qilish jarayonlariga to'sqinlik qilmoqda.

Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarni chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

- investitsiyalar jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarga qaratilgan valyutada o'zini-o'zi qoplashni ta'minlaydigan investitsiyalarga ko'maklashish;
- jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmasini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun "ochiq eshik"lar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;
- mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;
- soliq yukini yengillashtirish, mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratish;

- investitsiya dasturlarini samarali amalga oshirish (bu borada olib borilayotgan siyosatda davlat korxonalariga nisbatan amalda bo'lgan budjetdan moliyalashtirish tizimi muayyan darajada boqimandalikni keltirib chiqarishi va investitsiya faoliyatida ularga nodavlat sektori subyektlariga qaraganda imtiyozli sharoit yaratishi mumkinligi ye'tiborga olinmokda);
- davlat boshqaruv organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat qilish funksiyalarini yanada takomillashtirish.

Olib borilayotgan faol investitsiya siyosati asosida O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning o'ziga xos tajribalar shakllangan. Biroq, bugungi mavjud amaliyot uni yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Chunki, birinchidan, bu borada jahon amaliyotida aksariyat davlatlarda yuksak tajribalar va zamonaviy amaliyot tizimi shakllangan bo'lib, bu ushbu mamlakatlarda investitsiya faoliyatining faol rivojlanib borishiga samarali xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinchidan, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va uni moliyalashtirishdagi mavjud bir qator muammolarning jiddiyliги hamda ularni bartaraf etishning zaruligi bilan izohlanadi. Mavjud muammolarning hal etilishi investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli olib borgan tadqiqotlarimiz asosida bugungi kunda mamlakatimizda investitsion faollikni oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjudligini keltirib o'tish mumkin:

- investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda eng muhim va asosiy muammolardan biri - infratuzilmaga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarni elektr-energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlar mavjudligi - eksportyor korxonalarni uzluksiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va nazoratga olish;
- qo'shma korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirish muammosi. Bu to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni mamlakat mintaqalari bo'ylab joylashtirishga yo'naltirilgan rag'batlantiruvchi tadbirlarni talab qiladi;
- xomashyo sotib olishga aylanma mablag'lar yetishmasligi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini o'rganib chiqib, uni moliyaviy sog'lomlashtirish, qarzlarni restrukturizatsiya qilish bo'yicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda xom ashyoning yetishmasligi - ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va xom ashyo bazasi bilan bog'liq masalalarni loyiha tashabbuskorlari bilan birga ishlab chiqish;
- texnologiya va asbob-uskunalarining eskirganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning xalqaro standartlarga javob bermasligi va raqobatbardosh emasligi texnologik asbob-uskunalarni zamonaviylashtirish maqsadida xalqaro ko'rgazma savdolarida ishtirok etishni ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit uchun garov predmetining yetarli bo'lmasligi, kredit ta'minotini rasmiylashtirish jarayonlarining murakkabligi va buning natijasida ko'p vaqtning yo'qotilishi;
- korxonalarda marketing xizmatining to'g'ri tashkil etilmaganligi, tovar ishlab chiqaruvchilarning xorij bozorlari, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanmaganligi, korxonalarda marketing bilan shug'ullanuvchi xodimlar bilimining, malakasining yetarli darajada emasligi, bu, o'z navbatida, investitsiya loyihasi (mahsulotlar bozori) bo'yicha marketing tadqiqotlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda kreditni qaytarish manbasining ishonchsizligiga salbiy ta'sir etishi, shu bilan birga xomashyoni yetkazib berish va mahsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarining to'liq va haqiqiy olib borilmasligiga ham olib kelayotganligi;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadning (loyiha bo'yicha pul kiritmlari) o'z vaqtida kelib tushmaslik riskining mavjudligi va bunday risklarning omillari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni sotish bilan, xaridorlar bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi yoki mavsumiy tebranishlar bilan bog'liq bo'lishi;
- tijorat banklarining kredit-moliya muassasalariga xos bo'lmagan vazifalarni bajarishi muhim muammodir. Ko'p hollarda, banklar nazorat qiluvchi va kuzatuvchi organlar sifatida harakat qilmoqda va bu hol investitsiya loyihalari tashabbuskorlarining bank tizimi bilan munosabatiga kuchli salbiy ta'sir etishi natijadasi ularning "yashirin" iqtisodiyotga kirib borishiga turtki berayotganligi, buning oqibatda, investitsion faollikning pasayishi yuz berishi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hamda eksport salohiyati, marketing va mahsulotlarni sotishga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va ko'rgazmalarni tashkil etishni muntazam yo'lga qo'yish;
- mamlakatda xususiy kapital egalari aksariyati o'z mablag'larini ishlab chiqarishga jadal kiritmayapti. Bunga sabab, birinchidan, investitsiya xatarlari yuqoriligi bo'lsa; ikkinchidan, ancha samarali va o'zini tez qoplaydigan tarzda mablag' kiritish mumkin bo'lgan obyektlarga hali sarmoya kiritish tajribalari va amaliyotining yetarlicha shakllanmaganligi; uchinchidan, investitsiya xatarlari barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda ularga qarshi tadbirkorona kurasha olish qobiliyati, malakasi va tajribasiga suyanishda o'ziga ishonchning pastligi va to'la shakllanmaganligidir;
- korxonalarining o'z mablag'lari mamlakat ichki investitsiyalarining asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Biroq, bugungi chuqur inflyatsiya ta'sirida ularning ishlab chiqarish hajmi pasaygan sharoitda foyda hisobidan yanada o'sish imkoniyatlarini baholash birmuncha umidsizlik kayfiyatini tug'diradi. Makrodarajada amortizatsiya fondining qisqarib ketishi uning takror ishlab chiqarish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib kelmoqda;
- mamlakatda milliy jamg'armalar, sug'urta, investitsiya fondlari va boshqa investitsiya tuzilmalari tizimi yetarlicha rivojlanish holatida emasligi milliy jamg'armalarning yuqori darajada kapitallashuviga va investitsiyalash vositalariga aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- kapitalni bir sohadan boshqa sohaga faol o'tkazadigan, shu jumladan, fond bozori orqali o'tkaziladigan zamonaviy bozor mexanizmlarining rivojlanmaganligi mazkur jarayonni pasaytirimoqda. Bu kapitalning harakati, daromadlilik va samarasini, pirovardida, iqtisodiy o'sishni susaytirmoqda. Bu fond bozori hozircha mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etishning faol vositasiga aylanmaganligida namoyon bo'lmoqda;
- mamlakatimiz xo'jalik subyektlarining, shu jumladan, davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlarida sotish yo'li bilan xorijiy sarmoyalarni milliy iqtisodiyotga keng ko'lamda jalb etish imkoniyatidan foydalanilmayotganligi;
- mamlakatimiz ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida yuqori likvidli xususiyatiga ega bo'lgan, xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlarning va to'lovga qobil elementlarning tijorat qimmatli qog'ozlarining yetishmasligi hamda milliy qimmatli qog'ozlar bozorimizning jahon bozoriga integratsiyasining juda zaifligi.

Biz jarayonlarning bir me'yorda evolyusion rivojlanishini o'rganishga nisbatan dialektik yondashuvning, to'liq formallashtirish hamda empirik hisoblash mumkin bo'lgan masalalarda esa sinergetik yondashuvning afzalliklarini inkor etmagan holda, hudud iqtisodiy salohiyatini samarali boshqarish yo'nalishlarini o'rganish asosini tizimli paradigma tashkil etgan tizimli anglash lozim. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish: strategiyasi va mexanizmi rivojlanishi va unga baho berishda inson kapitalining holati, hududdagi mavjud texnik-texnologik ishlanmalar, ixtirolar soni, ularning aholi soniga nisbati bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada hududlarning rivojlanganlik

darajasiga baho berish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy-uslubiy tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
2. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF FUTURE TEACHERS. *Modern Science and Research*, 3(5), 386-392.
3. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. *Modern Science and Research*, 3(5), 417-425.
4. Заявитдинова, Н. М., Базарова, М. С., & Ходжиев, А. Б. (2022). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА СТРАТЕГИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. ББК 65.0501 А 43, 265.
5. Supiyevna, B. M. (2024). WAYS OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 131-137.
6. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In *Инновационное развитие науки и образования* (pp. 122-132).
7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
8. Shadiyev, A. X. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM DEVELOPMENT CHARACTERISTICS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 108-115.
9. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 381-387.
10. Ibdulloevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
11. Ibdulloevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo 'Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 515-523.
12. Ibdulloevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 504-507.
13. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko'rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. *Miasto Przyszłości*, 54, 987-995.
14. Toshov, M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIYAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Modern Science and Research*, 3(6).
15. Khakimovich, T. M. (2024). FINANCIAL AND SUPPORT OF SMALL BUSINESSES BY COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 237-242.
16. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy.

Miasto Przyszłości, 54, 764-771.

17. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS, 3(10), 37-44.
18. Nafisa, R. (2024). Defects in Administration in Economic Development. International Journal of Formal Education, 3(9), 17-24.
19. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., 49, 249-255.
20. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 418-426.
21. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
22. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. Наука и образование сегодня, (2 (3)), 60-62.
23. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. Инновационное развитие, (4), 66-68.
24. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности (pp. 358-361).
25. Sodiqova, N. T. R. (2024). KORXONADA KADRLAR SIYOSATINI OQILONA TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI. Gospodarka i Innowacje, 51, 54-62.
26. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.
27. Turayevna, S. N. (2024). Человеческий Капитал Как Главный Фактор Генерации Экономического Развития В Узбекистане. Miasto Przyszłości, 54, 848-856.
28. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. Miasto Przyszłości, 54, 857-866.
29. Akbarovna, N. N. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TURIZIMNING O'RNI NAZARIY USLUBIY ASOSLARI. Gospodarka i Innowacje., 51, 63-70.
30. Akbarovna, N. N. (2024). Servis Korxonalarida Xizmat Ko 'rsatish Sifatini Oshirish Omillari. Miasto Przyszłości, 53, 548-557.
31. Jumayeva, Z. B. (2024). ANALYSIS OF MACROECONOMIC INDICATORS. Gospodarka i Innowacje, 51, 230-236.
32. Bustonovna, J. Z. (2024). TIJORAT BANKLARIDA BANK MARKETINGGI VA MIJOZLAR ISHLASHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 102-108.
33. Bustonovna, J. Z. (2024). WAYS OF EFFECTIVE USE OF STATE FINANCIAL RESOURCES IN ENSURING THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY. Gospodarka i Innowacje., 49, 242-248.
34. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF

- HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
35. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobatdoshlikni Oshirishda Innovatsion Salohiyatning Ahamiyati.
 36. Qudratova, G. (2024). The Importance Of Innovative Activity In Increasing The Competitiveness Of Higher Education Institutions. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
 37. Азимов, Б. Ф. (2024). Инновационные Стратегии Промышленных Предприятий: Факторы Формирования. *Miasto Przyszłości*, 54, 867-877.
 38. Fattohevich, A. B., & Davronovna, R. D. (2024). KRAUDFANDING-MINTAQA OLIY TALIM MUASSASALARI ILMIY-INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONALISHI SIFATIDA. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 354-360.
 39. Азимов, Б. Ф., & Гафарова, Д. Т. (2013). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА РЕСУРСНЫХ НАЛОГОВ. In *ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ* (pp. 278-279).
 40. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Miasto Przyszłości*, 54, 1206-1214.
 41. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
 42. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
 43. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
 44. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.
 45. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
 46. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
 47. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 160-166.
 48. Sadilloevna, D. M. (2024). IQTISODIYOTDA INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI VA UNI BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING METOLOGIK ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 161-167.
 49. Sadilloevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.